

**SAVOD O'RGATISH JARAYONIDA O'QUVCHILARNING TAFAKKURINING
RIVOJLANISH USULLARI**

Asqarova Ro'zixon Numonjonovna
Bog'dod tumani 48-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumta'lim tizimida o'quvchilarga savod o'rgatish jarayonida ularning tafakkurini rivojlantirish va bolalarning ijodkorlik xususiyatlarini oshirishga alohida to'xtalgan. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga savod o'rgatish jarayonida ularning tafakkurini rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri sanaladi. Shu sababli ishimizda savodli yoshlarni tarbiyalashda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihatlar ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *savod, tafakkur, ijodkorlik, o'yin, insho, iqtidor, ijodkor, qobiliyat, ta'llim, usul.*

**МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ
ОБУЧЕНИЯ ГРАМОТНОСТИ**
Аскарова Розихан Нумонжоновна
Учитель школы 48 Багдадского района

Абстрактный. В данной статье в процессе обучения грамоте учащихся в системе общего образования особое внимание уделяется развитию их мышления и совершенствованию детского творчества. Развитие мышления учащихся в процессе обучения грамоте учителем считается одной из актуальных проблем на сегодняшний день. Поэтому в нашей работе выявлены аспекты, которые следует учитывать при воспитании грамотной молодежи.

Ключевые слова: *грамотность, мышление, творчество, игра, сочинение, талант, творец, умение, образование, метод.*

**METHODS OF DEVELOPMENT OF STUDENTS' THINKING IN THE
PROCESS OF LITERACY TEACHING**
Askarova Rozikhan Numonjonovna
Teacher of school 48 of Baghdad district

Abstract. In this article, in the process of teaching literacy to students in the general education system, special attention is paid to the development of their thinking and the improvement of children's creativity. Developing the thinking of students in the process of teaching literacy by the teacher is considered one of the urgent problems today. Therefore, in our work, aspects that should be taken into account in the education of literate young people have been revealed.

Key words: *literacy, thinking, creativity, game, essay, talent, creator, ability, education, method.*

KIRISH

Bugungi kunda mammalakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi samarali qadamlar avvalo kelajak avlod uchun muhim omillarni belgilab bermoqda. Prezidentimiz bejizga “Yangi O‘zbekiston-maktab ostonasidan boshlanadi” deb aytmaganlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni [1] bu ishlarning muhim mezoni bo‘lib hizmat qildi deyish mumkin.

Bugungi kunda dunyo miqiyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa sohalar qatorida ta’lim jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatli tashkil etishga o‘z ta’sirini ko‘rsatayotganligi barchamizga ma’lum. Bunday sharoitda inson faoliyatining nazariy va amaliy qirralari ham uzlusiz yangilanib turishi tabiiydir. Pedagogik faoliyat ham alohida va murakkab mehnat turi sifatida bundan mustasno emas. Pedagoglar o‘z faoliyatlarida kafolatlangan natijalarini qo‘lga kiritishga urinmoqdalar.

XXI asrni olimlarimiz tomonidan axborot texnologiyalari asri deb tan olinganligi pedagogik va axborot texnologiyalari kun sayin barcha sohalarda rivojlanayotgani, jumladan, ta’lim sohasida ham yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish an’anaviy o‘qitish usullaridan ko‘ra samarali va yuqori natijalarga olib kelmoqda. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko‘zda tutilganidek, pedagogik va taxborot texnologoyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta’lim jarayonini yangi axborotlar bilan ta’minalash rivojlanib bormoqda.

Yosh o‘quvchilarga savod o‘rgatish barobarida ularni tafakkurini oshirib borish muhim masala hisoblanadi. Savod o‘rgatish jarayoni eng avvalo elementar o‘qish va yozishga o‘rgatishdan iboratdir. Savod o‘rgatish pedagogika fanidagina emas, balki ijtimoiy hayotda ham juda jiddiy masalalardan hisoblanadi. Chunki xalqning savodxonligi mustaqillik uchun, siyosiy onglilik uchun ma’daniyat uchun kurash qirolidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Eng avvalo, mavzuni tadqiq etishdan oldin savod chiqarish nima?, tafakkur deganda nimani tushunamiz? kabi savollarga javob berib o‘tish lozim.

Savod chiqarish ya’ni savodlilik, savodxonlik kabi tushunchalar lug‘atlarda 1) aholi madaniy saviyasi kursatkichlaridan biri; 2) odamning adabiy til normalariga muvofiq keladigan og‘zaki va yozma nutq malakalariga egaligi; 3) oddiy matnlarni o‘qiy olish yoki ularni o‘qish va yoza olish ko‘nikmasiga egalik; 4) muayyan soha bo‘yicha bilimga egalik (siyosiy savodxonlik, texnik savodxonlik, tibbiy savodxonlik)[2,11] kabi izohlar bilan ifodalanadi. Savodxonlik tushunchasining mazmun-mohiyati jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida uning ijtimoiy, siyosiy, ilmiy, madaniy hamda ruhiy saviyasiga bog‘liq ravishda o‘zgarib turadi.

Hozirgi kunda boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatish masalalariga doir bir qator vatandosh olimlarimiz ham samarali izlanishlar olib bormoqdalar. Bulardan R.X.Jo’raev, N.X.Azizzadjaeva, U.N.Nishonaliev, M.S.Saidahmedov, B.L.Farberman, H.Ishmatov, X.Abdukarimov, K.Zaripov, B.Ziyomuhhammadov, M.Kamoliddinov, T.G’afforova, N.X.Avliyoqulov, Q.T.Olimov, R.Ishmuhammedov, O’.Tolipov, T.Nazarova, A.E.Kenjaboevlarning tadqiqot ishlarini alohida ta’kidlash lozim.

Tafakkur - inson aqliy faoliyatining yuksak shakli hisoblanib, obyektiv vaqelikning ongda aks etish jarayonidir. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to‘la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir.[3,14]

TAHLIL VA NATIJALAR

Savod o‘rgatish mashqlar yordamida amalga oshiriladi. Tadqiqotlardan ko‘rinishicha, savod o‘rgatish mashqlarining asosiy turlari quyidagilardan iborat.

1. Analiz mashqlari
2. Sintez mashqlari [3,26]

Analiz mashqlari o‘z tarkibiga Nutq (gap) dan so‘zni ajratish; so‘zni aniq talaffuz qilish; bo‘g‘inlarga bo‘lish va bo‘g‘inlarni aniq talaffuz qilish, urg‘uli bo‘g‘inni ajratish va uni boshqa bo‘g‘inlardan farqlab, kuchli talaffuz qilib o‘qish, maxsus tovushni ajratgan holda so‘zni bo‘g‘inlab o‘qish (aaaa-na, nooon, iiin, sssa-na, ki-yyyyik, iiish) kabilarni oladi. [3,26]

Sintez mashqlari esa tovush tomonidan analiz qilingan so‘zni yoki bo‘g‘inni talaffuz qilish va uni kesma harfdan tuzish (yozish); shu so‘z yoki bo‘g‘inni o‘qish, o‘rganilgan undosh yoki unli bilan (na, ni, no; la, lo, li; ay, uy, oy, ...) bo‘g‘in jadvalini tuzish; bo‘g‘in jadvalini kitobdan yoki matndan o‘qish kabilalar bilan ifodalanadi. [3,27]

Savod o‘rgatish jarayonida tafakkurli o‘quvchini shakllantiruvchi omil sifatida inson ongi va taffakuri, ma’naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi. U o‘quvchiga ega bo‘lgan bilimlarning ko‘p qirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilish, hayotiy muommolar yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. ijodiy fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o‘ynaydi. Albert Eynshteyn “Tasavvur-bilimdan muhim” [4,35] deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga chiroyli yozuvni o‘rgatish savodxonlikning poydevori hisoblanadi. Boshlang‘ich sinfda o‘qitishdan maqsad o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini ravon qilish hamda ularni har tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalash bilan bir qatorda, ularni go‘zallikka intiluvchi, uni yurakdan his qila oladigan go‘zallikni yaratishga intiladigan kishilar qilib voyaga yetkazishni nazarda tutadi.

Husnixatga o‘qitishdan asosiy maqsad kichik yoshdagи o‘quvchilarga yozuv jarayoni murakkab uni o‘rgatish orqali, ularning chiroyli yozuv malakalarini shakllantirishdan iboratdir. Bu vazifalar ko‘p qirralari bo‘lib, o‘quvchilarni aqliy rivojlanishga, ularning atrof - muhit haqidagi bilimlarni kengaytirishga axloqiy va estetik didlarini tarbiyalashga, ongli o‘qish va yozish malakalarini hamda yozuv daftar bilan ishlash ko‘nikmalarini hamda yozuv daftar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Bu vazifalarning barchasi o‘zaro bog‘liq holda amalga oshiriladi. Ularni hal qilish zaruriy yozuv malakalarini egallahga darslikda berilgan o‘quvchilar saviyasiga mos nazariy va amaliy material uyg‘unlashtirilib, o‘zlashtirish ustida ishlashni maqsadga muvofiq uyushtirish, shuningdek, matnlar sifati, topshiriqlar xususiyatini va bolalar aqliy faoliyatining o‘ziga xos tomonlarini belgilaydigan qator uslubiy shart - sharoitlarga bog‘liq.

Bola kamolotining shakllanishi ko‘p jihatdan chirolyi yozuvga bog‘liq. Chirolyi yozish orqali bolalar boshqa fanlarni muvaffaqiyatl o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladilar. Inson hayotida yozuv muhim o‘rin tutadi, chunki u har kuni turli - tuman qog‘ozlar va hujjatlardan foydalanadi. Bularning hammasi chirolyi va bexato yozishni taqozo etadi. Ammo qisqa muddat ichida o‘quvchilarda chirolyi , tez va bexato yozish malakalarini o‘sirish mumkin, buning uchun bir necha yillik mehnat talab etiladi. Chirolyi yozuvga o‘rgatish uchun bolalarning maktabga qadam qo‘ygan kunlardan boshlab izchil mashqlar olib borish zarur.

Husnixat malakasini shakllantirish uchun birinchi navbatda harflarning shaklini to‘g‘ri tasavvur etishga, bir xil qiyalikda yozishga so‘zlarda harflarni to‘g‘ri joylashtirishga o‘rgatiladi. Daftар chiziqlari birin ketin almashuvi davomida harflarning qiyaligini va ular orasidagi masofani to‘g‘ri saqlash, kichik va bosh harflarning nisbatini to‘g‘ri chandalab yozishga o‘rgatish juda muhimdir. Husnixat darslarida ma’lum guruhgа oid harflarni yozishga o‘rgatish o‘quvchilarda uchraydigan ayrim xatolarning oldini olish va tuzatish ustida ish olib borish lozim . Yozuv tezligi oshishi bilan ayrim bir-biriga o‘xshash harflarni shaklini buzib yozish hollari uchraganda esa, ularni qayta mashq qildirish kerak. Chirolyi yozuvga o‘rgatishda daftardan to‘g‘ri foydalanishga e’tibor berish zarur. Ikki chiziqli daftardan bir chiziqli daftarga o‘tganda o‘quvchilar oldiga qator vazifalar qo‘yadi. Chirolyi yozuvga o‘rgatish umumiylididaktik qoidalar bilan birga, yozuv malakasini shakllantiruvchi o‘ziga xos qoidalarini ham o‘z ichiga oladi.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

Savod o‘rgatish jarayonida quyidagi jarayonlar o‘quvchilarni tafakkurini quyidagilar rivojlantiradi deb hisoblaymiz:

-O‘qishning ongliligini va ta’sirchanligini ta’mirlash, matn mazmunini o‘quvchilarning ko‘rgan kechirganlarini, taassurotlari bilan bog‘lash.

-Ongli o‘qishni amalga oshirishda ko‘plab lug‘at ustida ishlash.

-She’r, tez aytish, topishmoq, qo‘sish, maqol, hikmatli so‘zlardan o‘qitish va yod oldirish,

-O‘qishga o‘rgatishda so‘zлarni va gaplarni to‘ldirib o‘qish, gap tuzishga, tez mustaqil fikrlashga erkin imkoniyat yaratishi.

- O‘qituvchi har bir o‘quvchini eshitishi, o‘quvchining xato fikrlashini bilsa ham ularni to‘xtatib tashlamasligi, hattoki xato bo‘lsa ham eshitishi kabi tushunchalar misol bo‘la oladi.

- Rasmlar yordamida ham o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirish mumkin.

A) Bittagina tabiat manzarasini olib, bolalarga uni diqqat bilan rasmni tomosha qilishni, ushbu rasmning eng kamida 10 ta sifat bilan tasvirlashni ta’kidlash;

B) Quyon yoki bironta hayvon rasmini diqqat bilan tomosha qiling, fil portretini so‘zlab bering va daftarga yozing, kabi misollar orqali o‘quvchilarning tafakkurini oshirishimiz mumkin.

XULOSA

Yuqorida fikrlardan kelib chiqib quyidagi hulosalarga kelindi:

- Husnixat malakasini shakllantirish uchun birinchi navbatda harflarning shaklini to‘g‘ri tasavvur etishga, bir xil qiyalikda yozishga so‘zlarda harflarni to‘g‘ri joylashtirishga o‘rgatish;

- Ularni hal qilish zaruriy yozuv malakalarini egallahsga darslikda berilgan o‘quvchilar saviyasiga mos nazariy va amaliy material uyg‘unlashtirish;
- Savod o‘rgatish jarayoni eng avvalo elementar o‘qish va yozishga o‘rgatish;
- Bugungi kunda dunyo miqiyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa sohalar qatorida ta’lim jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatli tashkil etishga o‘z ta’sirini ko‘rsatayotganligi barchamizga ma’lum. Bunday sharoitda inson faoliyatining nazariy va amaliy qirralari ham uzlusiz yangilanib turish kabi masalalar boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni
2. Djuraev H, Kuchukbaev F.M va boshqalar. Ta’lim-tarbiya jarayonida darsga salbiy munosabatdagi bolalarga nisbatan konstruktiv ta’sir etish texnologiyasi. 3. Qosimova.Q, Matchonov S, G‘ulomova X, Yo‘ldosheva Sh, Sariyev Sh. “Ona tili o‘qitish metodikasi” - T.: «Noshir», - 2009. 352 b.
4. Jumanova S. “Kreativlik qobiliyat”, <https://www.standart.uz/news/view?id=1627>
5. Murodjon o‘g‘li, U. I. (2024). BO ‘LAJAK O ‘QITUVCHILARNI DARS JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHGA O ‘RGATISH. Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 17(3), 151-154.